

MAVZULI KONSERTLARNI TASHKIL ETISHING O'ZIGA XOS YO'LLARI

Elnoza Abdulkarimova,

JDPI Musiqiy ta'lim kafedrasio'qituvchisi.

Annotatsiya: Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining o'rnini va ahamiyati ta'kidlangani holda musiqa ta'limida mavzuli konsert o'quvchilarni musiqa madaniyatini musiqiy didi, va tafakkurini o'stirishdagi roli haqida fikr

Kalit so'zlar: musiqa, konsert, dars, mumtoz, maqom, san'at, oliy pedagogik ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, talaba, o'quvchi, estetik tarbiya, kuy va qo'shiqlar.

Musiqa darslari o'z mazmuni mohiyati va tabiatiga ko'ra sana't darsidir. Musiqa darslarini sarmazmun va qiziqarli tashkil qilish o'qituvchidan muayyan darajadagi pedagogik va kasbiy mahoratni talab etadi. Musiqani tinglash, his etish, unda ifodalangan voqelik, obraz va mualliflarning g'oyasini idrok qilish nihoyatda murakkabdir. Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqani tushunish, uning g'oyaviy – badiiy mazmunidan bahramand bo'lishi muayyan darajada musiqiy bilim, konikma va malakalar bilan bir qatorda emosional his – tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liqdir. Musiqiy – nazariy bilimlarni o'zlashtirish, asarlarni tinglash, ijro va idrok etishda emosional ta'sirchanlik qanchalik faol bo'lsa ularni o'zlashtirish va estetik zavq olish ham shunchalik yuqori, mazmundor va puxta bo'ladi. Musiqa darslarida o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyotiga mansub folklor, mumtoz va maqom asarlari, zamonaviy janrlarda yaratilgan kuy – qo'shiqlar, shuningdek, musiqa san'atining atoqli namoyondalari-xalq hofizlari, cholg'uchilari, bastakor –kompazitorlar hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirib borish o'quvchilarni musiqiy tafakkuri va dunyoqarashini shakllanishi va rivojlanishi, musiqa madaniyatini tarkib topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu

esa o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga o'z pedagogik mahorati va o'qitish uslublarini uzluksiz takomillashtirib borish vazifasini qo'yadi.

Shunday vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim maktablari "musiqa madaniyati" fani bo'yicha o'tkaziladigan sinf – konsertlari va sinfdan tashqari tashkil qilinadigan mavzuli konsertlarni o'ziga xos o'rni va ahamiyati kattadir. Musiqa ta'limi va tarbiyasi bo'yicha sinf konsertlarini chorak va yil mavzularu bo'yicha, mavzuli konsertlarni darsdan tashqari faoliyatda musiqa san'atining ayrim janrlari, asarlar, bastakor – kompazitorlar hayoti va ijodiga bag'ishlab o'tkazilishi mumkin. Mavzuli konsertlarni tashkil qilish quyidagi maqsad va vazifalarni ko'zda tutadi:

- o'quvchilarda milliy musiqa merosga qiziqish va mehr – muhabbat, uni o'rganishga bo'lganishtiyoqni o'stirish, musiqa san'atining mashhur namoyondalari hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirib borish;

- o'quvchilarda musiqada ifodalangan voqea – hodisalarga estetik munosabatni tarkib toptirish, musiqa asari mazmunida ifodalangan voqelikni, obrazlarni idrok etish, shu orqali go'zallikni his qilish, tushunishga o'rgatish;

- o'quvchilarda ma'lum bastakor, kompazitor, ijodkor hayoti, faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, ularning eng sara asarlarida aks etgan falsafiy, ijtimoiy, madaniy g'oyalar, hayot manzaralari, badiiy obrazlar mohiyatini anglash, idrok qilishga o'rgatish;

- xalq musiqasining folklor, mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlari bilan chuqurroq tanishtirish, bu san'at janrlarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida kengroq bilim va tushunchalarga ega bo'lish, milliy musiqamizga barqaror qiziqishni hosil qilish;

- o'quvchilarda musiqa asarlarini tinglash, kuylash, ijro etishga ijodiy yondashish konikma va malakalarini tarkib toptirish:

- o'quvchilarda musiqiy did, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish:

- mavzu doirasida musiqiy – nazariy bilim, tushuncha va ma'lumotlarni o'zlashtirishda qo'shimcha manbalardan foydalana bilishga o'rgatish.

Konsert rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. To'garak a'zolari va muayyan sinf o'quvchilari bilan mavzuga oid ijod namunalari musiqiy asarlar fotosur'atlar ko'rgazmasini tashkil etish.

2. Ma'ruzalar tayyorlash.

3. Mavzuga oid qo'shiq, raqslar, murakkab janrlarga xos musiqa asarlari, vedioyozuvlari.

Mavzuli kechalarni o'tkazishda ijodiy jamoalar vakillari, tasviriy san'at, adabiyot o'qituvchilari hamkorligi uning badiiy ta'sirchanligi va mazmundorligini ta'minlaydi. Mavzular o'qituvchi va mutaxassilar tomonidan tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'ruzada san'atshunos olimlarning respublik matbuotida, ilmiy to'plamlarda chop etilgan maqolalaridan, o'zbek milliy ensiklopediyasi va boshqa manbaalardan foydalanilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'ruzalarni zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanib, slaydlar orqali namoyish etib borish, uning samaradorligini ta'minlaydi.

Konsert so'ngida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiriladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mavzuli konsertlar, musiqiy ta'limning eng ta'sirchan, samarali shaklidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – Toshkent, Ma'naviyat, 2008yil.

2. M.Bo'ronov. "O'zbekistonda ma'naviy-marifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi". Toshkent, Ma'naviyat, 2016yil.

3. D. Soipova. "Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish". – Toshkent, Fan va texnologiyalar markaziy bosmaxonasi, 2006 yil.

4. Qudratov I, Abdukarimova E. "Musiqi darslarida fanlararo aloqadorlik". Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015yil.

5. N. Hasnova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'рни. Актуальный вызов и современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

6. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. – Toshkent, XTV, 1995 yil.
7. O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 1-Tom. – T.:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955y.567b.
- 10.Hamidov H. O'zbek an'anviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996y.